# Xotin-qizlarning ta’lim olishi va jamiyatdagi munosib o‘rni



Xotin-qizlarning ta’lim olishi va jamiyatdagi munosib o‘rni
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Zo‘rlik ishlatilishidan jabr ko‘rgan xotin-qizlarlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 6-oktabrdagi 625-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Xotin qizlar o‘rtasidagi o‘z joniga qasd qilishning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi”ning 10-bandi ijrosi yuzasidan Termiz davlat universitetining Pedagogika institutida 2021 yil 10 noyabr kuni «Xotin-qizlarning ta’lim olishi va jamiyatdagi munosib o‘rni» mavzusida talaba-qizlar ishtirokida yig’ilish tashkil etildi.
Yigilishda O’zbekiston musulmonlar idorasi xotin-qizlar masalalari bo’yicha viloyat bosh otinoyisi X.Qosimova, Termiz shahar Kengashi deputati, Termiz shahar targ’ibot guruhi rahbari D.A.Normurodova, institutning Xotin-qizlar maslahat Kengashi raisi o’rinbosari S.I.Tursunova, o’qituvchilardan D.Azimova, S.Niyazova, Z.Rasulova, Sh.Xaqberdievalar tomonidan hozirgi yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasi, shaxsiy hayotga tayyorgarligi, yomon illatlardan saqlanish, kiyinish va muomala madaniyatiga e’tiborli bo’lish, talaba-qizlar o‘rtasidagi o‘z joniga qasd qilishning oldini olish bo‘yicha fikrlar yuritildi.